

# O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi kimyo sanoat mahsulotlarining 21-may sanasidagi savdo yakunlari

// 21 may 2024 йил

<https://special.uzkymyosanoat.uz/uz/press/news/birja20240521>



uzkymyosanoat



uzkymyosanoat.uz



(+99878) 140-74-25

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi o'z savdo maydonchasi orqali tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan kimyo mahsulotlari savdosining 2024-yil 21-may sanasidagi yakuni bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etadi.

Joriy yilning 20-may kuni "O'zkimyosanoat" AJ tizimidagi korxonalar tomonidan O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi ochiq birja savdolari orqali jami 9006,1 tonna 28 876,4 mln so'mlik mineral o'g'itlar

sotildi. O'tgan hafta bu ko'rsatkich yuqori bo'lgan, ya'ni 20-may kuni 31 426,2 mln so'mlik 10 426,2 tonna mineral o'g'itlar sotilgan.

Birja savdolariga tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan ammiakli selitra, karbamid, sulfat ammoniy, ammofos, PS-Agro, kaliyli o'g'itlar, superfosfat azot-fosforli o'g'it kabi mahsulotlar qo'yildi. Savdoga qo'yilgan mineral o'g'itlardan ammiakli selitra eng ko'p sotilgan mahsulot bo'lib, sotuvning 42,8 foizini tashkil etdi.

Shuningdek, "O'zkemyosanoat" AJ tizimidagi korxonalar tomonidan mineral o'g'itlardan tashqari bugungi kun sanoatida keng qo'llanilayotgan PVX, kaustik soda, formalin, natriy gipoxlorid, kalsinatsiyalangan soda, azot kislotasi va suyuq kislorod kabi bir qator kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Ular ham doimiy ravishda birja savdolariga qo'yib boriladi.

21-may kuni jami 8027,0 mln so'mlik boshqa turdag'i kimyo mahsulotlar sotildi. O'tgan kuni bu ko'rsatkich past bo'lgan, ya'ni 17-may kuni 4806,7 mln so'mlik boshqa turdag'i kimyo mahsulotlari sotilgan. Sotuvning asosiy qismini, ya'ni 63,6 foizini polivinilxlorid mahsuloti tashkil etdi.

O'zbekiston Respubлиka tovar-xom ashyo birjasidagi "O'zkemyosanoat" AJ savdo maydonchasi orqali tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar savdosи bo'yicha barcha ma'lumotlarni [www.uzkemyosanoat.uz](http://www.uzkemyosanoat.uz) rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi <https://t.me/uzkemyosanoat> va <https://www.facebook.com/uzkemyosanoat/> rasmiy sahifalari orqali olishingiz mumkin.

Mahsulotlarni yetkazib berish va ularning sifat darajasi bo'yicha taklif va e'tirozlaringiz bo'lsa, (78) 140-74-48 ishonch telefon raqamiga murojaat qilishingiz mumkin.

### **"O'zkemyosanoat" AJ Matbuot xizmati**